

BOLALARGA YOZISHNI O'RGATISHDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH ZARURATI

Eshbekova Gulbahor Zafarboyevna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Sirtqi bo'lim, o'qituvchisi.

Email: eshbekovagulbahor86@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14902212>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari yoshiga xos psixologik va pedagogik xususiyatlar xususida fikrlar berilgan. Bolalarga yozishga o'rgatishda tarbiyachi pedagoglarning vazifalari hamda yozishga o'rgatishda qoidalarga amal qilish masalalari, savodxonlikka o'rgatish talablari mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyalanuvchi, maktab, maktabgacha ta'lim tashkiloti, darslik, standart, yozish ko'nikmalari, innovatsion yondashuv, qobiliyat, ko'nikma.

THE NEED TO TAKE INTO ACCOUNT PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS WHEN TEACHING CHILDREN TO WRITE

Abstract. This article provides ideas on the use of methods and techniques in teaching preschool children to write. It covers the tasks of educators in teaching children to write, the issues of following the rules when teaching writing, and the requirements for teaching literacy.

Keywords: pupil, school, preschool educational organization, textbook, standard, writing skills, innovative approach, ability, skill.

НЕОБХОДИМОСТЬ УЧЕТА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ ПИСЬМУ

Аннотация. В статье излагаются идеи по использованию методов и приемов в обучении детей дошкольного возраста письму. Освещены задачи педагогов по обучению детей письму, вопросы соблюдения правил при обучении письму, требования к обучению грамоте.

Ключевые слова: ученик, школа, дошкольная образовательная организация, учебник, стандарт, навыки письма, инновационный подход, умение, навык.

Kirish. Keyingi yillar davomida O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirish va uning samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-

2707-son¹, 2017 yil 9 sentyabrda “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3261-son Qarorlari, 2017 yil 18 dekabrda “O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va uning tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi 991-son qarorlari shular jumlasidandir. Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Psixologik adabiyotlarda qayd etilishicha, maktabgacha yoshdagi bola rivojlanish jarayonida ajdodlari tomonidan yaratilgan narsa va hodisalar, olam sir-sinoatlari bilan alohida munosabatga kirishadi. U insoniyat tomonidan qo’lga kiritilgan yutuqlarni faol o’zlashtirib, egallab boradi. Bolada narsa-hodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o’sib borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu oilada ota-ona, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa tarbiyachilar ko‘magida yuz beradi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning qobiliyati kuchaya boshlaydi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bosqich ularda murakkab harakatlarni takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat ko‘nikmalarini hosil qilish, yozma va og‘zaki nutqini o‘stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir. P.F.Lesgaftning fikricha, inson hayotining ayni shu bosqichida uning kelgusida qanday qobiliyat va xarakter-hislatlar sohibi bo‘lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga chiqadi. Bu yoshdagi bola tabiatiga xos bo‘lgan asosiy xususiyat – bolaning uzluksiz tarzda harakatda bo‘lishi va u faoliyat natijasidan emas, balki harakatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchashidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatining asosiy qonuniyati bo‘lmish serharakatlilikni cheklamay, uni maqsadli tashkil eta bilish bu yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasida kutilgan samarani beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu, avvalo, keng davraga chiqish, munosabatda bo‘lish, o‘ynash ehtiyojlarining mavjudligidandir. Bu yoshdagi bolalar nutqni ma’lum darajada o‘zlashtirganliklari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan kattalar hamda tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Qiziqish huddi ehtiyoj kabi bolani biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham psixologlar qiziqishni bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixik hodisa deya baholaydilar. Maktabgacha ta’lim

¹ PQ 27-07.29.12.2016. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi

tashkilotlarida nutq o'rtirish va badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarida bolalarga xos bo'lgan bu tabiiy xususiyatlar qiziqish va bilishga intilish sifatlaridan ularning o'zlari uchun oqilona foydalanish milliy tarbiyashunoslikning bosh maqsadi – barkamol shaxsni shakllantirish masadiga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Bolaning yozish qobiliyatini rivojlanganlik darajasi bo'yicha O.S.Ushakova va F.A.Soxinlar tomonidan bolalarda yozma qobiliyatni shakllantirish borasida olib borilgan ishlar yozma qobiliyatning aniqlik, izchillik xususiyatlaridan tashqari boshqa xususiyatlarining ham aniq mezonlarini belgilashni taqozo qilmoqda. Shu jihatdan, aniqlik va izchillikdan tashqari bolalar yozish qobiliyatiga xos bo'lgan yana mantiqiylik, to'g'rilik, uzviylik va tezkorlik kabi xususiyatlarni ham keltirish mumkin. Mazkur sifatlar bola yozish qobiliyatida to'laqonli kompleks ravishda ta'minlanishiga erishish yozma qobiliyatning ravon va maqsadga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bola yozish qobiliyatida mazkur xususiyatlar har xil darajada rivojlanishini ta'minlashda yozish qobiliyatini korreksion metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Adabiyotlarda keltirilishicha, ikki yashar bolaning so'z zahirasi taxminan 250 tadan 400 tagacha, uch yoshli bolaning so'z boyligi 1000 tadan 1200 tagacha va 7 yashar bolaning leksikasi 4000 taga etadi. Demak, maktabgacha yosh davrida bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir. Maktabgacha ta'lim muassasasiyoshidagi bolalarning tafakkuri, asosan, ularning turli-tuman o'yin faoliyatlarida, mashg'ulotlarda rivojlanib boradi. Masalan, maktabgacha yoshidagi bolalar loy o'ynashni, ya'ni loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi ko'radilar. Bunday mashg'ulotlar bolalar tafakkurining o'sishiga faol ta'sir qiladi. Maktabgacha yoshidagi bolalar tafakkurining o'sishiga faol ta'sir qiluvchi omillardan yana biri ertaklardir. Psixologik adabiyotlarda ilgari surilgan bu jihatlardan ko'rinadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirishda ularga xos bo'lgan tabiiy-ruhiy xususiyatlarni inobatga olish bu borada muvaffaqiyatga erishish garovidir. Maktabga tayyorlov guruhi (6 – 7 yosh) bosqichida boladagi harakatlar ko'lamini kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6 – 7 yoshli bola o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshda bola chiniqadi. Qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligi va shaxsiy gigienasini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik ko'nikmalar shakllana boradi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida unda faoliyatning yangi turi

bo'lgan ta'lim olishga, o'qishga ishtiyoq uyg'ona boshlaydi. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim bo'ladi. Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak.

XULOSA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bolalarni yozish ko'nikmalarini shakllantirishda nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishlari zarurdir. Aks holda tarbiyalanuvchilarni rivojlantirishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yishlari mumkin. Shu bois ularning maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini nazariy tomondan yaxshi bilishlari maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun tadqiqotimizda yetuk psixolog olimlarning asarlaridan foydalangan holda, maktabgacha yoshdagi, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhi bolalari bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda e'tibor qilinishi zarur bo'lgan psixologiyaga oid nazariy tushunchalarni yoritdik.

REFERENCES

1. T.G'afforova, X. G'ulomova. G. Eshturdiyeva. 1-sinfda savod o'rgatish darslari. - T.: „O'qituvchi, 1996.
2. X. G'ulomova, Sh. Yo'dosheva, G. Mamato va , H. Boqiyeva , A. Sobirova X.G'ulomovanning husnixat o'qitish metodikasi;
3. Abdullayev Y “Hamrohim” o'quv qo'llanma Toshkent “O'qituvchi” 1996
4. Bondarenko A.K. Bolalar bog'chasida didaktik o'yinlar: bolalar bog'chasi o'qituvchisi uchun qo'llanma. - M: Ma'rifat, 1985. - 176s.
5. Fellowes, J. va Oakley, G. (2014). Til, savodxonlik va erta bolalik ta'limi, 2-nashr. Melburn, Avstraliya: Oksford universiteti nashriyoti.
6. Uyda savodxonlik faoliyati va belgilari bolalarning rivojlanayotgan savodxonligi, 1993 va 1999. (NCES 2000-026). V.
7. Тихеева Е.И. Развитие речи детей. Пособие для воспитателей детских садов. Издание 4-е. –М.: Просвещение. 1981. -144
8. Eshbekova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yozish ko'nikmalarini shakllantirish muammolari. scienceproblems.uz ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари № 12/2 (3)-202